

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

LI BORIS NIKOLAYEVICH

XALQ TIBBIYOTI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan Oliy o‘quv
yurtlarining 5720100-Davolash ishi mutaxassisligi yo‘nalishida tahsil olayotgan
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2008

Darslikda xalq tibbiyotining umumiy va xususiy masalalari yoritilgan, uning klassik va zamonaviy shakllari berilgan. Shuningdek, kitob asosiy vaqt ekstremal holatlarda amaliy ko'nikmalarni qo'llashni shakllantirish masalalariga ham bag'ishlangan.

Darslik tibbiyot institutlari talabalari uchun xalq tibbiyoti bo'yicha dasturga muvofiq yaratilgan.

Taqrizchilar:

T.O. DAMINOV,

O'zR FA akademigi, professor,
TTA yuqumli kasalliklar va bolalar
yuqumli kasalliklari kafedrası mudiri

A.L. ALYAVI,

tibbiyot fanlari doktori, professor,
O'zR SSV tibbiyot reabilitatsiya
va terapiya ITI direktori

ISBN 978-9943-08-326-4

© B.N. Li. «Xalq tibbiyoti». Darslik. «Yangi asr avlodi» 2008-yil

SO‘ZBOSHI

Yosh shifokorlarni tayyorlash sifatini oshirish Respublikamizdagi tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining asosiy vazifasidir, bu vazifa esa faqatgina zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilangina amalga oshadi. Biroq kafedra tashkil topgan 1996-yildan to hozirgacha tibbiyot institutlari talabalari uchun xalq tabobati bo‘yicha darslik yo‘q. Shu sababli ushbu darslikni yaratishga zarurat tug‘ildi. Darslik «Xalq tabobati» dasturi talablariga muvofiq va o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini e‘tiborga olgan holda tayyorlandi.

Davolash va tibbiy pedagogika fakultetlarining 5-kurs talabalari, shuningdek tibbiyot oliy o‘quv yurtlari professor - o‘qituvchilarini xalq tabobati bo‘yicha asosiy bilimlar bilan ta‘minlash va mamlakatimizda zamonaviy fan yutuqlari darajasida aholiga davolash-profilaktika yordamini tashkil qilish ushbu darslikning asosiy maqsadi qilib belgilangan.

Darslik boblari ham nazariy, ham amaliy materiallardan iboratdir. Darslikda igna sanchish konsepsiyasi, meridional qonun bo‘yicha refleksoterapiya nuqtalarini tizimlashtirish, biologik faol nuqtalarga ta‘sir o‘tkazish usullari, igna bilan davolashda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan asoratlar va ularning oldini olish, xalq tibbiyotining shifobaxsh o‘simliklari va boshqa ma‘lumotlar ham mazkur darslikdan o‘rin olgan. Shuningdek, unda shoshilinch holatlarda xalq tibbiyoti amaliy ko‘nikmalarini qo‘llash usullariga asosiy e‘tibor qaratilgan.

Ushbu darslikka xalq tibbiyoti bo‘yicha sobiq SSSR, shuningdek xorijda nashr etilgan kitob materiallari va Toshkent Tibbiyot Akademiyasining uslubiy ishlari tajribasi asos qilib olindi.

Bu kitob xalq tibbiyotining barcha bo‘limlarini qamrab ololmaydi, biroq u o‘qituvchini xalq tibbiyotining asosiy qoidalari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega.

Aytib joizki ushbu vazifa O‘zbekiston Respublikasi tibbiyot institutlarida kelgusida xalq tibbiyotini o‘rganish va rivojlantirishda birinchi qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Barcha taklif va istaklar muallif tomonidan minnatdorchilik bilan kutib olinadi.

*LI B.N.,
tibbiyot fanlari doktori*

I BOB

XALQ TIBBIYOTI RIVOJLANISHINING QISQACHA TARIXI

Xitoy, Tibet, Mongoliya, Yaponiyada bo'lgan davolash amaliyoti ming yillar davomidagi usullar va nozik tomonlari bo'lgan Sharq tabobati an'analariga ega. Ularning asosiysi organizmning shaxsiy resurslarini safarbar qilish, dori-darmonlarni kam miqdorda qo'llashdan iboratdir. Chunki dorilarni qabul qila olmaslik zamonaviy tibbiyotning muhim muammosi hisoblanadi.

Dori-darmonsiz samarali davolash usuli sifatida turli sohadagi shifokorlar igna terapiyasi bilan qurollanadigan vaqt keldi.

Biz igna bilan davolashning amaliy tomoniga ko'proq hissa qo'shishni zarur deb bildik, shuning uchun refleksoterapiya an'analari mexanizmlari haqidagi zamonaviy tasavvurlar va 14 klassik meridianlarga qisqacha to'xtaldik.

Chjen-szyu-terapiya usulining nomi quyidagilarni bildiradi: «chjen» – ukol va «szyu» – kuydirish. Bu usul tana nuqtasini aniqlashda ukol qilish yoki kuydirish usulini o'z ichiga oladi.

Igna sanchish ta'sir mexanizmi haqida zamonaviy tasavvurlar

Igna bilan davolash mexanizmlarini o'rganishga V.G. Vogralik, I.I. Ruseskiy, E.D. Tikochinskaya, D.M. Tabayeva, R.A. Durinyan, V.S. Goydenko, E.L. Macheret, Gavaa Luvsan va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

I.I. Ruseskiy bilan hammualliflikda (1962-y.) yozilgan qo'lanmada keltirilishicha, igna sanchish ta'sir mexanizmining tahlilini mahalliy, segmentar va umumiy serebral, shubhasiz o'zaro aloqador bo'lgan ta'sirga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Igna to'qimaga qanchalik chuqur kirsa, differensirlangan retseptorlarning umumiy ta'siri kam bo'ladi. Igna sanchishning o'ziga xosligi, uning barcha boshqa reflektor usullardan farqi va xususan, organizmga teri yoki shilliq qavat orqali davo ta'siri

jismoniy terapiya hisoblanadi. Bu birinchidan, igna sanchishda ta'sir kichik zonaga tushadi, mazkur jarayon esa nuqtali ta'sir deyiladi.


Ikkinchidan (igna sanchish ta'sirining o'ziga xosligini tushunish uchun ayniqsa muhim bo'lgan), nafaqat va terida joylashgan birmuncha sezuvchanlik (eksteroretseptorlar) uchi ta'sirlanadi, balki bevosita teri osti hujayralari, mushaklar, boylamlar, perinevral va perivaskulyar chigallarda igna yo'li bo'yicha uchraydigan proprio-baro-xemo-va angioresep-torlarning mexanik ta'siri o'ringa ega. To'qimaga igna kirgizishda organizm tomonidan mahalliy, segmentar va umumiy ta'sir kelib chiqadi (1-rasm).

Turli nerv elementlarining chuqur ta'sirlanishi proprioretseptiv sezuvchanligi ma'lumki, faol nuqtaga ma'lum chuqurlikka tormozlash usuli bilan ignani kiritishda kelib chiqadigan belgilarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi va har xil sezgilar (uvishish, jizillash, bosim, «elektr toki yurishi», shishish, ilqlik) bilan tushuntiriladi.

Bu sezgilar ukol natijasida kelib chiqadigan og'riqning paydo bo'lish sezgisi bilan yoki teridan ignaning o'tishi vaqtida asosan sodir bo'ladigan sezuvchan nerv uchlarining ta'sirlanishidan ko'ra, tomir ta'sirlanishida o'zining a'lo darajadagi xarakteri bo'yicha obyektiv aksini topadi.

Mahalliy ta'sir, bunda kelib chiqadigan impulslar oqimi afferent yo'li asab ustuni va perivaskulyar bog'lamlar ichidan o'tuvchi somatik va vegetativ tolalar bo'yicha markazga intiladi, tegishli joyga ta'sir ko'rsatilganda, orqa miya segmentlari va asab tizimi bo'limlarida (miya o'qi, retikulyar formatsiya, bosh miya qobig'i sohasi va qobig'i) ham umumiy ta'sirini rivojlantirib, segmentar ta'sir keltirib chiqaradi. Umumiy ta'sir markaziy asab tizimining birmuncha yuqori bo'limlari – gipotalamus limbiko-retikulyar tizimini jarayonga jalb etish bilan xarakterlanadi. G.N. Kassil (1975) ta'kidlaydiki, qonda ba'zi gormonlar, mediatorlar va metabolitlar tarkibi ko'paya boradi va boshqalari esa kamayadi. Katexolaminlar, asetilxolin, gistamin, serotonin, kortikosteroidlar, kininlarning o'zaro munosabati o'zgaradi.

Bularning barchasi jismoniy faoliyatning buzilishini tiklashga va gomeostazni me'yorga keltirishga olib boruvchi, vegetativ-gumoral kompleksning faolligi va reaktivligini qayta qurishga olib keladi. Bu esa igna sanchish harakati asosida murakkab neyrogumoral mexanizm yotadi deb hisoblashga asos bo'ladi, ta'sir o'rni va usuli, ta'sirga javob xarakteri va yo'nalishga qaraganda, ta'sir tushadigan funksional fon muhim rol o'ynaydi.



1-rasm. Organizmga igna sanchishning mahalliy, segmentar va umumiy ta'siri (A.M. Veyn ma'lumoti bo'yicha)

Masala shundaki, ichki kasalliklarda – yuza yoki chuqur retseptorlarni ta'sirlash, qay bir ta'sir ko'proq davolash ahamiyatiga ega – bu batamom o'z yechimini topgan deb hisoblashga asos bo'lmaydi. Teri yuzasi retseptorlari yupqa differensiyalangan apparat hisoblanadi va chamasi Xitoycha igna sanchish uchun katta rol o'ynamaydi.

Igna sanchish qoidasi ukolning juda kam og'riqli bo'lishi hisoblanadi. Shunday ekan, bunday holda teri retseptorlarining ta'sirlashi boshlang'ich «ishga tushuvchi» ahamiyatga yoki po'stloq fiksatsiyasi turiga ega. Chuqur retseptorlar boshqa tur, ya'ni o'z xarakteri bo'yicha – diffuz, sust ta'sir manbalar hisoblanadi va ichki a'zolar holatiga samaraliroq ta'sir ko'rsatadi.

Boshqa mualliflar fikri bo'yicha esa igna sanchish mexanizmida gumoral omillar, og'riq sezgilarini blokirlovchi biologik faol moddalarning (mediatorlar, gormonlar) ajralishi katta ahamiyatga egadir.

E.D. Tikochinskaya (1959, 1966) va V.G. Vogralik o'tkazgan tadqiqotlar igna sanchish leykositlarga stimullovchi ta'sir ko'rsatadi, fagositlar faollikni oshiradi, antitelalar miqdorini ko'paytiradi va organizmning himoya kuchini oshiradi.

Igna sanchish mexanizmi haqida yana bir nechta farazlar bor, biroq hali barcha tan olgan igna sanchish samarasining barcha yashirin tomonlari va qadimgi Sharq refleksoterapiyasining boshqa usullarini zamonaviy darajada tushuntirib beradigan umumiy konsepsiya yaratilmagan.

Shunday qilib, chjen-szyu terapiyasi teri qoplaminig chuqur bo'limlaridagi refleksoterapiya hisoblanadi. Xitoy xalq tabobatining katta xizmati uning chuqur refleksoterapiyani ishlab chiqishi bilan xarakterlanadi. Chjen-szyu terapiyasi uchun davolash vaqtida qachonki igna «xitoy nuqtasida» (uvushish, og'irlik, zirqirash va b.) bo'lganda, ma'lum bir sezgi turini his qilish muhim omil hisoblanadi.

Sharq va G'arb tibbiyoti

G'arb tibbiyoti kasalliklar sababini tashqi omillar deb hisoblaydi (masalan, viruslar va mikroorganizmlar), Sharq tibbiyoti esa kasallik manzarasini ichki omillar orqali ko'rib chiqadi (masalan, organizm himoya faoliyatining kuchsizlanishi). Shuning uchun G'arb tibbiyotining asosiy davolash usuli tashqi omillar ta'siriga barham berish, to'xtatish, Sharq tibbiyotida esa davolash kasalliklarga qarshi organizmning ichki himoya ta'sirini ishlab chiqish va mustahkamlashni nazarda tutadi (1-jadval).

G'arb tibbiyotidan farqli o'laroq Sharq tibbiyoti tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan tibbiy preparatlardan ko'proq foydalanadi.

Sharq va G'arb tibbiyotining farqli jihatlari

Sharq tibbiyoti	G'arb tibbiyoti
Falsafiy yondashuv	Ilmiy yondashuv
Har tomonlamalik	Diskretlik
Yaxlit bir butunlik tushunchasi	Ajralganlik
«Ichki tomondan» yondashuv	Jarrohlik yondashuvi
Model asos qilib olinadi	Kasallik asos qilib olinadi
Nazariy yondashuv	Eksperimental yondashuv
Shaxsiy tibbiyot	Ijtimoiy tibbiyot
Konstitutsional himoya	Bakteriologiya
Suyuqlik patologiyasi	Bakterial patologiya
Subyektiv belgilarga urg'u beriladi	Obyektiv belgilariga urg'u beriladi
Tabiiy dori vositalari	Kimyoviy dori vositalari

G'arb va Sharq tibbiyoti bir-birini to'ldiradi.

Sharq tibbiyotining ta'sir doirasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– diagnostika va organizm faoliyati bilan bog'liq kasalliklarni davolashda;

– erta diagnostika va degenerativ kasalliklarning oldini olishda;

– epidemiologiya diagnostikasi va davolashda.

G'arb tibbiyoti fazilatiga esa quyidagilarni kiritish mumkin:

– jarohatlarga diagnoz qo'yish va davolash;

– gigiyena sohasidagi kasalliklar diagnostikasi va ularning oldini olish (bakteriologiya va virusologiya);

– a'zolar tuzilmalarining shikastlanishini davolash.

Har bir tabobatning kuchli tomoni birining boshqasidan ustun turishini ta'kidlamaydi, balki ularning o'zaro bir-birini to'ldirishini namoyon qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy bosqichda tibbiyotning rivojlanishi, kasalliklarni davolash yutuqlariga yangidan-yangi G'arb usullarini Sharq tibbiyotining eng samarali usullari bilan uyg'unlashtirgan holda erishish mumkin.

Nazorat savollari

1. «Chjen-szyu-terapiya» usulining nomi nimani bildiradi?
2. Faol nuqtaga igna kiritganda organizmda qanday ta'sirlar yuzaga keladi?
3. Qaysi asab tizimi bo'limi jalb qilinganda umumiy ta'sir xarakterlanadi?
4. Igna sanchish leykositlarga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Sharq va G'arb tibbiyoti belgilarining farqli tomonlarini tavsiflang.

II BOB

QADIMGI SHARQ AN'ANAVIY TIBBIYOTIDA FALSAFIY KONSEPSIYALARNING AHAMIYATI

In-Yan konsepsiyasi


Qadimgi Sharq amaliy tibbiyoti asosida In-Yan va u-sin falsafiy ta'limoti yotadi. Har bir predmet va jonzot, har qanday tabiat hodisasi o'zida ikki tomonni – in va yan (nur va zulmat, sovuq va issiq)ni mujassam qiladi (2-rasm). Ushbu boshlanishlarning qarama-qarshi kurashlari tufayli dunyo va barcha tirik mavjudotlar mavjuddir. Me'yordagi sharoitlarda ushbu qarama-qarshiliklar orasida nisbiy muvozanat, garmoniya saqlanib turadi, patologik sharoitlarda esa in yoki yan kasallik sababi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, barcha davolovchi tadbirlarning bosh maqsadi in va yanni nisbiy muvozanat holatiga qaytarish bo'lishi lozim.

Yan a'zosining klassik interpretatsiya faoliyati bu – «quvvat» ishlab chiqish joyi, in a'zolari esa «quvvat» deposi yoki «quvvatni» yutish joyidir. Yan meridianlari bo'shliq a'zolarga (fu – a'zolarga) yo'g'on ichak, oshqozon, ingichka ichak, siydik pufagi, o't pufagi va tananing uch bo'shlig'iga mos keladi. In meridianlari (chjen – a'zolar) yurak, taloq, buyrak, jigar va perikard parenximatoz hisoblanadi.

Perikard va tananing uch bo'shlig'i o'zining meridianlarni «boshqaruvchi», o'z morfologik asosiga ega emas, balki ularning meridianlarini aks ettiradigan «funktional tizim» hisoblanadi.

Ancha keyin, 12 asosiy meridianlardan tashqari yana ikkita, shuningdek morfologik asossiz «funktional tizim» hisoblanadigan orqa va old o'rta meridiani kashf etilgan. Orqa o'rta meridiani barcha yan meridianlarida yan-quvvatni, barcha in meridianlarida old o'rta in quvvatni boshqaradi.

In va yan orasidagi qarama-qarshilik bu – ziddiyatlar, predmet va tabiatdagi tirik mavjudotlarda ikkala qarama-qarshiliklar kurashini teran tushuntirib berishdir. Demak,



2-rasm. Xitoy monadasi

nur va zulmat, qo'zg'alish va to'xtash, issiq va sovuq va hokazolar inyan konsepsiyasi nuqtai nazari bilan bir butunlik va qarama-qarshiliklar kurashini aks ettiradi. Doimiy kurash va bir-birini surib chiqarishga intilish dunyoda hodisalarning o'zgarishi va rivojlanishida harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, in va yan bir vaqtning o'zida ham qarama-qarshi, ham o'zaro bog'liq bo'ladi va bir-biriga tayangan holda yagona organizmda o'zaro mavjuddir.

Zamonaviy fikrlar bo'yicha, in yanning buzilgan balansini tiklash masalasi bu – gomeostazni organizm himoya kuchini stimullash yo'li bilan tiklash masalasidir.

U-Sin konsepsiyasi

Qadimgi Sharq falsafasiga ko'ra, u-sin konsepsiyasi dunyodagi barcha hodisalarning besh asosiy elementi (daraxt, olov, yer, metall, suv) butun moddiy dunyoning dastlabki asosi degan ta'limotni targ'ib qiladi (3-rasm).

Besh asosiy element konsepsiyasida inson organizmi fiziologiyasi va patologiyasi orasidagi organizm va tashqi muhit orasidagi munosabat tushuntiriladi.

U-sin nazariyasida beshta asosiy element orasidagi munosabatning quyidagi turlari aniqlanadi: normal o'zaro stimullovchi va o'zaro jabrlovchi aloqalar, patologik – ortiqcha va qarama-qarshi jabrlovchi ta'sir.

Besh asosiy elementning o'zaro stimullash tartibi quyidagicha: daraxtdan olov kelib chiqadi, olovdan yer, metalldan suv, suvdan daraxt kelib chiqadi. Har bir asosiy element bir vaqtning o'zida stimullaydigan va stimullanadigan hisoblanadi.

Narsa va hodisalar orasidagi tabiiy o'zaro aloqalar ham stimuly beruvchi, ham chegaralovchi aloqada bo'lishi kerak. Stimulsiz rivojlanish ham bo'lmas edi, chegaralanmagan rivojlanish va o'sish esa zarar keltirishi mumkin edi.

Masalan, daraxt olovga stimuly beradi va shu bilan birga yerni jabrlaydi, yer esa o'z navbatida metallga stimuly beradi va suvni jabrlaydi.

Shu tariqa stimulyatsiya jabrlash bilan chegaralanadi, jabrlash esa stimulyatsiya bilan to'lib boradi, ya'ni bu ta'sirlar tufayli narsa va hodisalarning (garmoniya) normal rivojlanishini ta'minlovchi zarur (fiziologik) muvozanat o'rnatiladi.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/1639> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1639> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/1639>